

Date: 3<sup>rd</sup> October-2024

## **ONA TILI DARSLARIDA NOAN'ANAVIYLIK**

**Razzoqova Nargiza Ergashevna**

Toshkent viloyati Zangiota tumani

38-umumiy o'rta ta'lim maktabi Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi



O'quvchilarning o'zaro hamkorligi asosida dars samaradorligini oshirishi, mustaqil fikrlash, fikr-mulohaza yuritish, munosabat bildirish ko'nikmasini shakllantirish, ya'ni interfaol tushunchasini yuzaga keltirishi kerak. Bu usulda o'quvchi o'zi faol ishtirok etgan holda, yakka juftlikda, guruhlarda muammo va savollarga javob topishga harakat qiladi, fikrlaydi, baholaydi, yozadi, so'zga chiqadi, dalil hamda asoslar orqali qo'yilgan masalani yoritib berishga harakat qiladi. Bu esa o'quvchilarning xotirasida uzoq saqlanadi. Yangi mavzuni o'zlashtirishda tanqidiy, tahliliy yondosha oladi. O'qituvchi faqat yorug' ko'rsatuvchi, kuzatuvchi vazifasini bajaradi, xolos.

Ona tili darslari o'quvchilarda nutq faoliyatining asosiy turlarini o'stirish bilan bir qatorda, ularda ahloqiy va estetik tessavvurlarni shakllantirish, nafosat hissini tarbiyalash, mantiqiy tafakkur yuritishga o'rgatish, bilim manbai bo'lgan kitobni sevish kabi muhim masalalarni ham hal etishini nazarda tutadi.

Ona tili o'qitishda noan'anaviy dars usuli yuqori samara bermoqda. Bu usul o'z ichiga bir qancha metodlarni oladi. Masalan: ma'ruza, suhbat, test, og'zaki bayon, mustaqil yoki amaliy ish, lug'at bilan ishlash, diktant, uy ishi, bellashuv, musobaqa, sayohat krossvordlarni tuzish va yechish, savol-javob va boshqalar.

O'qituvchi bir soatlik dars davomida mana shu metodlarning bir nechtasidan samarali foydalana olsa, u ilg'or pedagogik texnologiya asosida noan'anaviy dars o'tgan bo'ladi.

Ona tili darslarining tuzilishi mavzusi, maqsad, metod, jihoz, darsning borishi qismlaridan iborat bo'ladi. O'qituvchi dars o'tish jarayonida darsning mavzusi, maqsadi, metodi, jihizi qismi shundayligicha qoldiradi, ammo darsning borishi qismiga mustaqil o'zgartirishlar kiritса bo'ladi. Ya'ni ish:

1. Mustaqil ish.
2. Og'zaki bayon.
3. Bellashuv.
4. Lug'at diktant.
5. Test.
6. Kitob bilan ishlash.
7. Yangi mavzu.
8. Dars yakuni va uyga vazifa jumlalari bilan almashtirsa bo'ladi.

Bunday darslarda o'quvchi o'zini erkin tutadi, mustaqil fikrlaydi, og'zaki va yozma nutqi o'sadi, yangi mavzuni o'zlashtirishi oson bo'ladi, dars qiziqarli bo'lganligi uchun o'tilgan mavzu uzoq vaqt xotirasida saqlanib qoladi.

Date: 3<sup>rd</sup> October-2024

Ona tilidan noan'anaviy darslarda boshqotirma rebuslardan foydalanilsa, ular o'quvchining tafakkurini charxlaydi, o'yashga fikr bildirishga o'rgatadi. Bular albatta oddiydan murakkabga qarab borishi lozim.

Test vaqtini tejash, dars mohiyatini yaxshi o'zlashtirishga yordam beradi. Shuning uchun test savollarini avvalo og'zaki tarzda butun sinf o'quvchilari bilan yechish kerak bo'ladi. Og'zaki muhokama etilgan mavzudan o'quvchi mustaqil xulosa chiqaradi. Bunda ham ko'rsatma harflardan foydalansa bo'ladi.

Noan'anaviy darslarda qo'llanadigan usullardan biri tarqatma materiallar bilan ishslashdir.

Tarqatma materiallar kartochkalari o'tilgan mavzularni takrorlash, mustahkamlash, olingan bilimlarni sistemalashtirish maqsadida ishlatiladi. Kartochkalarni tarqatishdan avval o'quvchilar o'qituvchi bilan birgalikda darslikda berilgan mashqlarni bajarib, mashqlar shartini tushunish, bajarilish tartibini va yo'llarini o'rganadilar. Dars samaradorligini yanada oshirish uchun mana shu metodlarning barchasini AKT asosida o'qitsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Interfaol metodlar o'qituvchi har bir o'quvchining individual bilim darajasini, bilimlarni o'zlashtirish darajasini, ularning har bir mavzu yuzasidan o'zlashtirgan bilim darajalarini alohida tarzda qayd qilib borish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bundan tashqari, tarqatma materiallardan foydalanishda bo'sh o'zlashtiradigan o'quvchilar bilan alohida ishslash, o'quvchilarning mustaqil ishlarini izchil ravishda murakkablashtirib borish imkoniyati ham juda keng.